

*Norxujayev Shaxboz Xusanjon o`g`li
Farg`ona davlat universiteti Tarix fakulteti
Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo`yicha) yo`nalishi
II bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qadimgi davr tarixida mavjud bo`lgan va o`z davrida yuksak taraqqiy etgan Kichik Osiyodagi shaharlardan biri qadimgi Troya shahrining vujudga kelishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi bilan bir qatorda zaiflashuvi, inqirozga uchrashi va tarix sahnasidan chiqib ketishi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o`tilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu tarixiy geografik hudud chindan ham mavjud bo`lganligi to`g`risidagi fikrlar, olimlarning bu haqidagi g`oyalari va qarashlari bilan birga ularning g`oyalari o`rtasidagi bir qancha qarama-qarshiliklar haqida so`z yuritilgan. Shuningdek mazkur tarixiy hududni chindan tarix sahnasida mavjud bo`lganligini aniqlash uchun amalga oshirilgan bir qancha arxeologik tadqiqot ishlari haqida bayon qilingan.

Kalit so`zlar : Hisorlik tepaligi, Troya, Priam, Agamennon, Minelay, Gektor, Ilion, Paris, Sparta, Yelena, Odissey, Axill, Gerodot, “Iliada” dostoni, Gomer, yunonlar, frakiyaliklar, likiyaliklar, troya oti, Genrix Shliman, troya xazinasi.

TROY – MYTH OR REALITY

*Norkhujaev Shakhboz
Fergana State University, Faculty of History, 2 nd year student of
History (by country and region) course*

ABSTRACT

In this article, one of the cities in Asia Minor, which existed in the history of ancient times and was highly developed in its time, gives brief information about the creation, development, progress of the ancient city of Troy, as well as its weakening, crisis and exit from the scene of history. At the same time, the opinions that this historical geographical area really existed, the ideas and views of scientists about it, as well as several contradictions between their ideas are discussed. Also, several archeological researches carried out to determine whether this historical area really existed in the historical scene are described.

Keywords : Hill of Hisar, Troy, Priam, Agamemnon, Minelay, Hector, Ilion, Paris, Sparta, Helen, Odysseus, Achilles, Herodotus, “Iliad” epic, Homer, Greeks, Thracians, Lycians, Trojan horse, Heinrich Schliemann, Trojan treasure.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, ilk sivilizatsiya vujudga kelib taraqqiy eta boshlagandan so'ng turli davrlarda bir qancha rivojlangan shahar va davlatlar tashkil topa boshladi. Ana shunday shaharlardan biri bu qadimgi Troya shahridir. Bu shahar Turkiyaning Chanoqqal'a viloyatida joylashgan bo`lib, u dunyodagi eng mashhur antik shaharlardan biri hisoblanadi. Mil. avv. 2-mingyillikdan boshlab Troya yuksak taraqqiy etgan yirik markaz va kichik podsholik poytaxti bo`lgan. O`z davrida yuqori darajada gullab-yashnagan Troya shahri tosh va pishiq g`isht bilan terilgan mudofaa devorlari bilan o`ralgan bo`lib, bu davrda podsholikda dehqonchilik, hunarmandchilik singari ko`plab sohalar ancha rivojlanadi. Lekin Troya shahri chindan ham tarixda mavjud bo`lganmi? Bu savol ko`plab olimlar tomonidan muhokama qilingan bo`lib, turli fikrlar va qarashlar yuzaga kelgan. Bunday fikr va g`oyalarga aniqlik kiritish, ushbu shaharni tarixda mavjud bo`lganligini aniqlash maqsadida bir qancha olimlar tomonidan o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ushbu qadimgi shahar chindan ham tarixda mavjud bo`lganligi isbotlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadimgi Troya shahri Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy burchagidagi Hisorlik tepaligida joylashgan bo`lib, arxeolog olimlar bu tepalikni qazib ochganlarida u qadimgi Troya shahrining o'rni ekanligini aniqlaganlar. Bundan 4 ming yil muqaddam bu shahar Troya podsholigining markazi bo`lgan bo`lib, mil. avv. XXII asrda shahar dushmanlar tomonidan talanib, yoqib, vayron qilingan. Mil. avv. XVIII—XIII asrlar orasida esa Troya ma'lum bir darajada gullab-yashnagan va shu bilan bir qatorda u yerda xettlarga qarindosh bo`lgan qabilalar yashay boshlagan. Shahar ichida podsho saroyi, ma'muriy binolar, ibodatxona, badavlat kishilar, amir-amaldorlar va sarkardalarning muhtasham saroylari qad ko'tarib turardi. Troya podsholigi tepasida podsho o`tirib, u davlatni oqsoqollar kengashi va xalq yig`ini bilan maslahatlashib boshqargan. Troyaliklar og`ir aslaha bilan quollangan nayzadorlar, o`q-yoy bilan quollangan piyoda, otliq va ot qo`shilgan jang aravalardan iborat kuchli qo`shinga ham ega bo`lganlar.

Mil. avv. XVIII-XIII asrlarda podsholikda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan bo`lib, bu borada troyaliklar yilqichilikka alohida e'tibor bergenlar. Ular otlardan xo`jalik va harbiy maqsadlarda keng foydalanganlar. Aynan tarixchi Gerodot troyaliklarni “ot o'rgatuvchilar” deb, ularning jang aravalarini ham tilga olgan edi. Mil. avv. 1300-yilda Troyada qattiq zilzila bo`lib,

shahar katta talofat ko`rgan va zilzila natijasida aholining bir qismi halok bo`lgan. Shu tufayli bu davrda qadimgi Troya birmuncha zaiflashgan va inqirozga kirib qolgan edi.

Qadimgi Troyaning vujudga kelishiga to`xtaladigan bo`lsak, bu borada bir necha shaxslar o`z asarlarida uning vujudga kelishi haqida bayon qilganlar. Xususan, Gerodotning “Tarix” asari, Gomerning “Iliada” dostoni va boshqa shu singari ko`plab asarlarni bunga misol qilish mumkin.

Gomerning asarlariga to`xtaladigan bo`lsak, aynan uning “Iliada” dostonida qadimgi Troya haqida keng ma'lumotlar berib borilgan. “Iliada” dostoniga ko`ra, Troya shahri g`oyatda buyuk va qudratli bo`lib, unga Zevs o`g`li Dardanning evarasi Il asos solgan edi. Kunlardan bir kun Il Frigiyada pahlavonlar musobaqasiga qatnashib, hamma qahramonlarni birma-bir yengadi. Ushbu g`alabasiga evaziga Frigiya shohi Ilga ellik nafar yigit va ellik nafar navnihol qiz tortiq qiladi. Bundan tashqari shoh unga bir targ`il sigir ham beradi-da, Ilga shu sigir ketidan ergashib ketaverishni va u to`xtagan yerda shahar tiklashni amr etadi. Frigiya shohining aytishicha, sohibkaromat kohin, o`sha shahar ulkan shon-shavkatga tuyassar bo`ladi, deb bashorat qilgan edi. Il shoh buyurgandek ish ko`radi va u sigir ketidan ketaverdi. Sigir yurib-yurib, oxiri ma'buda Ate tepaligida to`xtaydi. Il ham mana shu tepalikni manzil aylab, u yerda shahar tiklay boshladi. Shu shaharga, shoh Il sha'niga Ilion deb nom qo`ydilar. Il podsholik qilgan davrda Troyaning tepalikdagi qismigina devor bilan o`ralgan bo`lsa-da, lekin shaharning tepe etagidagi qismi g`animlardan hech qanday g`ov bilan muhofaza qilinmagan edi. Shaharning bu qismi Ilning o`g`li shoh Laomedont davrida tangrilar Poseydon va Apollon tomonidan metin devor bilan o`raladi. Bu devorni tiklashda ularga qahramon Eak ko`maklashadi. Yunonlar Troyaga qarshi yurish boshlagan paytda esa bu yerda Ilning nabirasi Priam hukmronlik qilardi. U g`oyatda badavlat podsho bo`lib, uning qasri ham, o`z xotini malika Hekuba bilan istiqomat qilib turgan koshonasi ham benihoya hashamatli edi. Priam bilan uning 50 ta o`g`li va kelini, 50 ta qizi va kuyovi birga yashardilar. Priamning o`g`illari orasida saxovatli Gektor o`z dilovarligi va qudrati bilan boshqalardan ajralib turar edi.¹

TROYA JANGI

Shuningdek, Gomerning “Iliada” dostoni yunonlarning Troyaga qarshi yurish qilishlari natijasida boshlangan va 10 yil davom etgan Troya urushining boshlanish sabablari, jang tafsilotlari va asosan urushning so`nggi o`ninch yili haqida hikoya qiladi. Unga ko`ra, bu urushning boshlanishiga Troya podshohi Priamning o`g`li shahzoda Paris Sparta hukmdori bo`lgan Minelayning rafiqasi sohibjamol Yelenani Troyaga o`g`irlab ketishi sabab bo`ladi. Bundan xabar topgan Minelay Parisdan qasd olish maqsadida o`z og`asi Agamennon va boshqa yunon qahramonlari yordamida Troyaga qarshi yurish qilishga otlanadi.

¹ Хомер. Илиада. – Тошкент, Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. 17-бет.

Mil. avv. 1260-yilda Miken shohi Agamennon boshliq Yunon shahar-davlatlarining floti Troya ustiga bostirib keladi. Troya shohi Priam frigiyalik, likiyalik va frakiyaliklarni yordamga chaqirib, ular kelgunlariga qadar kurashni boshlab yuboradi. Urush 10 yil davom etadi. Yunonlar Troyani ishg`ol qilish uchun uzluksiz janglar olib borganlar. Chunki shahar qalin, mustahkam mudofaa devorlari bilan o`ralgan edi. Ular har qancha urinmasin shahar ichkarisiga kira olmaganlar. Chunki troyaliklar o`zlarining jonajon shaharlarini mardonavor himoya qilganlar.

Shaharni jang bilan olishga ko`zi yetmagan yunonlar harbiy hiyla ishlatishga jazm qiladilar. Ular Yunonistonning Itaka oroli shohi Odisseyning maslahati bilan yog'ochdan katta ot yasaydilar. Yog'och ot ichiga jasur jangchilarni joylab, uni Troya shahri devori tagiga olib borib qo'yadilar. Troyaliklar shubhalanmasliklari uchun yunonlar shahar devori atroflaridan chekinib dengizdagি kemalariga borib o'rnashadilar. Troyaliklar yunonlarning mash'um hiylasidan bexabar shahar devori ostidagi ulkan yog'och otni xotirjamlik bilan shaharga olib kirib, uni tomosha qiladilar. Tomoshadan keyin troyaliklar xotirjam bo`lib uyquga ketadi. Fursatdan foydalanib yunon jangchilari yog'och ot ichidan chiqib uyquda yotgan darvoza posbonlarini o`ldirib shahar darvozasini ochadilar. Bu vaqtida yunon askarlari kemalardan qaytib kelib shaharga bostirib kirishga tayyor turgan edi. Shundan so`ng yunon jangchilari shaharga seldek bostirib kiradi. G`aflatda qolgan troyaliklar uyg`onib, yunonlar bilan ayovsiz jang boshlaydilar. Yunonlar qal`adagi aholini shafqatsiz ravishda qirg`in-barot qiladi. Shaharni talon-taroj qilib, unga o`t qo`yadilar. Ular ko`p o`lja va asirlar bilan Yunonistonga qaytadi. Qaytishda dengizda halokatga uchrab, ko`pchiligi halok bo`ladi. Yunonlar ketgach Troya 400 yilcha tashlandiq holda xarob bo`lib yotadi. Mil. avv. 700-yilda Yunonlar Troya o`rnida yangi Ilion shahrini bino qiladilar. Garchi shahar qayta tiklangan bo`lsa ham o`zining avvalgi darajasiga ko`tarila olmaydi. Troya dastlab Frigiya va Lidiyaga, keyinchalik esa birin-ketin Eron, Makedoniya, Pergam, Rim va Vizantiya hukmdorlarining ta'siriga tushib qoladi.²

Gomer Troya shahrini kuchli, yengilmas devor bilan o`ralgan shahar sifatida tasvirlaydi. “Iliada” dostonida, shuningdek, shahar baland va tik devorlar bilan mustahkamlanib, uchlari jangovar joylar bilan qoplanganligi haqida ham ma'lumot bor. Devorlari g`ayrioddiy darajada mustahkam bo`lishi kerak edi, chunki Troya yunonlarning 10 yillik qamaliga dosh bera oladi. Yunon afsonalaridan ma'lum bo`lishicha, Troya devorlari shunchalik ta'sirli ediki, odamlar ularni Poseydon va Apollon qurgan deb ishonishgan. Agar yunonlar ayyorlik ishlatishmaganlarida, u holda ular shaharni katta ehtimol bilan egallab olisha olmas edi. Lekin yunonlar ulkan yog'och ot yasab, ayyorlik yo`li bilan shaharni bosib olishga muvaffaq bo`ldilar.

² Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. – Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2016. 214–215-betlar.

Bu o`rinda shuni aytib o`tish kerakki, Gomerning “Iliada” dostonida bayon qilingan ma'lumotlarning bir qanchasi to`qima bo`lib, asardagi ayrim voqealar afsonalar asosida bayon qilingan. Lekin yunonlar bilan troyaliklar o`rtasidagi urush chindan ham bo`lganligiga hech qanday shubha yo`q. Tabiiyki, bo`lib o`tgan bunday daxshatli urushga boshqa voqeа yoki holat sabab bo`lgan bo`lishi mumkin. Zamonaliviy olimlarning fikricha, Troya urushi mil. avv. 1240 – 1230-yillarda sodir bo`lgan. Uning haqiqiy sababi Troya va Miken shohlari ittifoqi o`rtasidagi savdo raqobati bo`lishi mumkin. Qadim zamonlarda yunonlar Troya urushi haqidagi afsonalarning to`g`riligiga ishonishgan. Haqiqatan ham, agar “Iliada” dostonidagi xudolarning ishlari olib tashlansa, she`rlar katta ehtimol bilan batafsil tarixiy yilnomalarga o`xshaydi deyish mumkin.

MUHOKAMA

Yuqorida keltirib o`tkanimizdek, qadimgi Troya shahri haqiqatan ham tarixda mavjud bo`lganligi to`g`risidagi fikr va g`oyalar bir qancha olimlar tomonidan ko`plab muhokamalarga sabab bo`lgan. Bunga oydinlik kiritish uchun bir qator olimlar Gomerning “Iliada” dostonida tilga olingan shaharning geografik o`rinlarini asarda keltirilgan ma'lumotlar asosida aniqlab, ushbu hududni o`rganishga harakat qildilar. Troya shahrining qoldiqlari birinchi marta milodiy 1863-yilda Frank Kalvert tomonidan topilgan, keyinchalik esa bu ishlar boshqa arxeologik olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu arxeologik olimlar orasida nemis arxeologi Genrix Shlimann alohida ahamiyatga ega desak mubolag`a bo`lmaydi.

Bolqon yarim oroli janubining va Kichik Osiyo Egey sohilining qadimgi tarixini arxeologik tadqiq qilish XIX asrning so`nggi choragida ancha kuchaya boshladi. 1870-yilda Genrix Shlimann Turkiya hududida, Kichik Osiyoning shimoli-g`arbiy qismida, Hissorlik tepaligida dastlabki qazuv ishlarini boshlaydi. Genrix Shlimann “Iliada” dostonida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, mazkur tepalik ostida Gomer hikoya qilgan Troyanining xarobalari bo`lishi kerak, deb o`ylagan edi. U 1870-yildan 1890-yilgacha, orada ba'zan tanaffuslar qilib, Hissorlik tepaligida maxsus qazuv ishlarini amalga oshirdi va natijada faqat Troyanining o`rnashgan joyinigina topib qolmasdan, balki shu bilan birga Egey dengizining eng qadimgi madaniyatiga oid juda muhim manbani ham topdiki, buni u hatto xayoliga ham keltirmagan edi. G. Shlimann ushbu hududda o`z vafotigacha, ya`ni 1890-yilgacha tadqiqot o`tkazdi va Troya shahrini 20 yil o`rgandi. Shunday qilib, Shlimann balandligi 20 metr bo`lgan sun'iy tepalikni topishga muvaffaq bo`ldi. Uning topilmalarida oltin va kumushdan yasalgan zargarlik buyumlari va idishlar bor edi, ular esa Gomer “Iliada” dostonida tasvirlagan narsalarga o`xshardi. Biroq Genrix Shlimann qadimgi Troya joylashgan o`rinni toparkan, Troyanining xarobalari joylashgan arxeologik qatlamni aniqlashda adashgan. U shuni hisobga olmaganki, eski shahar xarobalari ustida yangi shahar qurilganda teparining yangi quruvchilari odatda maydonni tekislaganlar va eski imorat qatlamining

qoldiqlarini qisman yo`q qilib yuborganlar. Shu sababli Shlimann dan keyin tadqiqot o`tkazgan olimlar avlodi tepalikning nishablarini qazib ko`rishga alohida e`tibor bergenlar va Gomer hikoya qilgan Troyaning arxeologik qatlami o`rnini aniqlab olganlar.³

Olimlar “Iliada” dostonida keltirilgan Troya II qatlama emas, balki VII arxeologik qatlama ekanligini aniqlaganlar. Qazuv ishlari milodiy XX asrda ham davom etdi va shu kungacha davom etmoqda. Oxirgi ma'lumotlarga ko`ra, Troya shahri hududida 9 xil shahar bo`lishi mumkin. Olimlar bu shaharlarni rim raqamlari bilan belgilaydigan tushuncha yaratdilar, ya`ni Troya I dan Troya IX gacha bo`lgan qatlamlar aniqlandi.

NATIJA

Yuqorida aytib o`tilganidek, Troya hududida amalga oshirilgan qazishma ishlari natijasida olimlar ushbu hududga tegishli bo`lgan 9 ta arxeologik qatlamlarni topishga muvaffaq bo`ldilar. Ularning barchasi turli asrlarga to`g`ri keladi va shartli ravishda birdan to`qqizgacha raqamlangan. Hozirda eng past qatlam Troya I deb nomlangan bo`lib, u mil. avv. 3000 – 2600-yillarga borib taqaladi. Bu diametri 100 metrdan oshmaydigan kichik aholi punkti edi. Bu ulkan devorlari va darvozalari, shuningdek, mudofaa minoralari bo`lgan qal'a edi. Ulardan ikkitasi qazish paytida aniqlangan bo`lib, bu turar-joy uzoq vaqt davomida mavjud bo`lgan va ehtimol, yong`in bilan vayron bo`lgan.

Troya II qatlami sobiq qal'a xarobalari ustiga qurilgan va 125 metr maydonni egallagan bo`lib, mil. avv. 2600 – 2300-yillarga borib taqaladi. Markazda omborlari va turar-joy binolari bo`lgan hovli bilan o`ralgan saroy bor edi. Aynan mana shu qatlama Genrix Shlimann zargarlik buyumlari, qurol-yarog` va har xil bezaklar bilan xazina topdi.

Troya III–IV–V – bu mil. avv. 2300 – 1900-yillarda mavjud bo`lgan katta aholi punktlari. Bu aholi punktlarida kichik ko`chalar bilan ajratilgan uylar guruhlari allaqachon kuzatilgan.

Troya VI tadqiqot natijalariga ko`ra, mil. avv. 1900 – 1300-yillardagi boylik, farovonlik va kuch haqida guvohlik berdi. Uning diametri taxminan 200 metr, devorining qalinligi 5 metr, perimetri atrofida 4 ta darvoza va 3 ta minorasi bor edi. Katta binolar, saroylar, teraslar borligi haqida dalillar bor. Taxminlarga ko`ra, eng kuchli zilzila hamma narsani vayron qilgan.

Troya VII qatlami mil. avv. 1300 – 900-yillarga tegishli bo`lib, ushbu qatlama zilziladan so`ng, vayron bo`lgan aholi punkti o`rnida hayot paydo bo`la boshladi. Uylar avvalgisidan kichikroq darajada qurilgan va ular bir-biriga mahkam o`rnashgan edi. Aynan shu Troya qatlami Gomer tomonidan “Iliada” da aytilgan voqealarga ishora

³ Крушкол Ю. С. История древнего мира, часть II. – Ташкент, 1975. Ст. – 20.

qiladi. Urushdan keyin Troya shahri yunonlar tomonidan talon-taroj qilindi va vayron bo`ldi, keyin frigiyaliklar tomonidan bosib olindi.

Troya VIII qatlami mil. avv. 900 – 350-yillarni o`z ichiga olgan bo`lib, shahar allaqachon yunonlarga tegishli bo`lgan va juda qulay deb hisoblangan. Hududda Afina ibodatxonasi, shuningdek, qurbanliklar uchun muqaddas joy bor edi. Biroq u hech qanday siyosiy ahamiyatga ega emas edi va aholining bir qismi shaharni tark etgach, u inqirozga uchragan edi.

Troya qoldiqlari hozirgi kunda Turkiyaning Chanoqqal'a shahri yaqinida, Hisortepa deb nomlangan hududda joylashgan bo`lib, ushbu hudud muhofazaga olingan va muzey sifatida tashkil etilgan. Turkiyaning ushbu shahriga har yili bir qancha sayyoohlар qadimgi Troya xarobalarini ko`rish uchun tashrif buyurishadi. Bugungi kunda Troya shahrida sayohatchining ko`ziga tushadigan narsa kam. Biroq, dunyodagi eng buyuk afsonaning muhiti doimo shu shaharda aylanib yuradi. Troya xarobasi 1998-yilda UNESCOning Butunjahon madaniy merosi ro`yxatiga kiritilgan. Keyinchalik Troya qoldiqlari UNESCO ro`yxatiga kiritilganining 20 yilligi munosabati bilan Turkiyada 2018-yil “Troya yili” deb e'lon qilindi.

XULOSA

Xulosa o`rnida shuni aytib o`tish mumkinki, qadimgi davrda juda ko`plab shahar va davlatlar vujudga kelgan bo`lsa-da, ularning hammasini ham nomlari tarixda o`chmas iz qoldirmagan bo`lishi mumkin. Lekin ayrimlari esa o`z nomlarini tarixga abadiy muhrlashga tuyassar bo`lganlar. Qadimgi Troya ham ana shunday shaharlar qatoridan joy olgan deb aytishimiz mumkin. Arxeologiyaning kashfiyotlari tufayli olimlar qadimgi davr haqida, qadimgi davrga oid manzilgohlarni o`rganishga muvaffaq bo`lmoqdalar. Shu tufayli ko`plab manzilgohlarni bilan birga qadimgi Troyaning o`rni, undagi mavjud bo`lgan moddiy madaniyat yodgorliklari ulkan mashaqqat bilan bo`lsa-da kashf etildi va jahon durdonalari qatoridan joy oldi. Bu esa qadimgi Troya shahrining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. – Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2016.
2. Хомер. Илиада. – Тошкент, Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
3. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. – Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.
4. Крупкот Ю.С. История древнего мира, часть II. – Ташкент, 1975.
5. Геродот. История. – Ташкент, 2004.